XALQ DEPUTATLARI QIZILTEPA TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-14-104-5-72-K/25 Qiziltepa tumani

Qiziltepa tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikaning 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuniga, xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2025-yil 29 dekabrdagi “Navoiy viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-22-165-5-0-K/25-sonli qarori, Navoiy viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 01-12/20-01-38/3536-sonli xati, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari J.Hojiyevning axboroti hamda bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari Qiziltepa tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashining 2025-yil 29 dekabrdagi “Navoiy viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-22-165-5-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1105-sonli Qonuniga (keyingi o‘rinlarda - Qonun deb ataladi) muvofiq, Qiziltepa tumani mahalliy budjetining 2026-yil uchun budjet daromadlari 151,4 mlrd. so‘m, xarajatlari ham 151,4 mlrd. so‘m etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2026-yil uchun Qiziltepa tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2027-2028-yillarga maqsadli mo‘ljallar **1-ilova**ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

Qiziltepa tuman mahalliy budjeti daromadlarining soliq turlari kesimida 2026-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **2-ilova**ga muvofiq;

2026-yilgi tuman mahalliy budjetidan budjet tashkilotlari va mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilova**ga muvofiq;

2026-yil uchun tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari **4-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 2113,025 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Qiziltepa tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1445,544 mln. so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

6. 2025-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozlari **5-ilova**ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Qonun bilan 2026-yilda xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni boshqarishda, xususan ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

8. 2026-yilda quyidagi soliq turlari:

a) <u>tuman budjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi</u>:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar:

qo‘shilgan qiymat solig‘idan tushgan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdtqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilardan tashqari) Qiziltepa tumanida 50 foizi;

b) qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagi daromadlar respublika, viloyat mahalliy budjeti va tuman mahalliy budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

davlat bojlari;

jarimalar;

yig‘imlar;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar;

Qonunchilikda belgilangan tartibda davlat aktivlarini sotishdan tushadigan tushumlar tegishli ravishda ob’yekt joylashgan tuman mahalliy budjetiga va viloyat budjetiga teng ulushlarda taqsimlanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining kamida 50 foizi (bundan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno) tuman mahalliy budjetiga o‘tkaziladi.

9. Qiziltepa tuman xalq deputatlari Kengashi:

- daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablag‘larning bir qismini tumanmahalliy budjetiga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berilishga;

- xalq deputatlari tuman Kengashi tumanning ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsentlarni joriy etishga haqliligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Hayitov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Hojiyev), Soliq inspeksiyasi (D.Murodov) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarini rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetining prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Tuman Soliq inspeksiyasi (D.Murodov)ga:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirilishini;

barcha soliq turlaridan doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rilishini;

Kadastr agentligining tuman bo‘limi bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarning to‘liq hisoblanishini;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazorati o‘rnatilishini hamda kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazilishini ta’minlash topshirilsin.

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman Soliq inspeksiyasi (D.Murodov):

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirish ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheyderlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

13. Majburiy ijro byurosi Qiziltepa tumani bo‘limi tuman Soliq inspeksiyasi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni ko‘rib borsin.

14. Tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini “e-auksion” elektron savdo platformasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish choralarini ko‘rsin.

15. Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qarori loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga, natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga

yo‘naltirilishiga hamda ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

16. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Hayitov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (U.Bobojonov) hamda tegishli tashkilot rahbarlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

17. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

18. Mazkur qaror “Yangi Qiziltepa” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

19. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

20. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokiminig birinchi o‘rinbosari (N.Hayitov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Islomov) zimmalariga yuklansin.

Kengash raisi **BOBOMURODOV BEKZOD NURIDDINOVICH**

Xalq deputatlari Qiziltepa tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-104-5-72-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Qiziltepa tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2027-2028-yillarga maqsadli prognozi mo‘ljallari

T/r	Ko‘rsatkichlar	2026-yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2027-yil	2028-yil
1	Sanoat maxsulotning o‘sish sura’ti, foizda	106,3	106,4	106,6
2	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sura’ti, foizda	104,2	104,5	104,7
3	Ko‘rsatiladigan xizmatlar o‘sish sur’ati, foizda	111,5	111,6	111,8
4	Qurilish ishlari o‘sish sur’ati, foizda	107,0	107,3	107,6

Xalq deputatlari Qiziltepa tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-104-5-72-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Qiziltepa tumani mahalliy budjetining daromadlari prognozi ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**151 408 026**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	6379400
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	31443423
3	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan olinadigan soliq	892000
4	Aksiz solig‘i, jami (*benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq*)	19805800
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7940000
6	Yuridik shaxslar yer solig‘i	23445000
7	Qurilish materiallari bo’yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	2307200
8	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4984000
9	Aylanmadan olinadigan soliq	10175000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’i	14150000
11	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig’i	20891000
12	Davlat boji	2346970
13	Foyda solig‘i	3057813
14	Yig‘imlar	1055020

15	Jarimalar	2206400
16	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	329000

Xalq deputatlari Qiziltepa tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-104-5-72-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Qiziltepa tumani mahalliy budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	**151 408 026**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
	Tuman va shaxar mahalliy byudjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	
1	**Umumiy ta’lim**	
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**16 452 449**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
2	**Maktabgacha ta’lim**	
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**19 087 391**
	shundan:	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
3	**Madaniyat bo'limi**	
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 294 274**
	Musiqa va san’at maktablari	**5 559 019**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
4	**sport maktabi**	
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**8 350 640**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

5	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 586 172**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
6	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	
	shu jumladan:	
	Obodonlashtirish boshqarmasi	**34 565 047**
	shundan: Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarini ta’mirlash xarajatlariga	**4 400 000**
	Issiqlik ta'minot korxonalariga subsidiyalar	**0**
	Suv xo'jaligi vazirligi tashkilotlari	**1 449 000**
	Fermerlar buxgaltenriyasini saqlash xarajatlari	**586 979**
	Veterinariya qo'mitasi (laboratoriya)	**828 523**
	Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	**0**
	Mahalla byudjeti jamg'armasi mablag'lari	**1 816 000**
7	**Yoshlar ishlari agentligi bo‘limi**	
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**6 550 236**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
8	**Iqtisodiyot va moliya bo'limi**	
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 354 187**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi**	
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 367 630**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
10	**Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi**	
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**142 274**
11	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	
	Tuman xokimligi xarajatlariga	**7 022 224**
	Xalq qabulxonasi xarajatlariga	**37 589**
	Xokim yordamchilari xarajatlariga	**5 696 364**
	Xotin qizlar bo‘limi xarajatlariga	**2 673 124**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya	

	qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Axborot-kutubxona markazi**	
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**931 300**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Zahira jamg‘armasi**	
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 113 025**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**23 348 979**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
15	**Mening maktabim jamg‘armasi**	
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 595 600**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

Xalq deputatlari Qiziltepa tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-104-5-72-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

Foiz hisobida

T/R	**Umumdavlat soliqlari nomi**	**MRI**	**DSB**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	0 %	50 %
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	0 %	55 %
3	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	100 %	100 %
4	Foyda solig‘i	0 %	30 %
5	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	0 %	70 %
6	Yuridik shaxslarning mol- mulkiga solinadigan soliq	0 %	100 %
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	0 %	100 %
8	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	100 %	100 %
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	100 %	100 %
10	Aylanmadan soliq	0 %	100 %
11	Davlat boji	0 %	29 %
12	Jarima	0 %	28 %
13	Yig‘imlar	0 %	29 %

Xalq deputatlari Qiziltepa tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-104-5-72-K/25 -son qaroriga
5-ilova

2026-yil uchun Qiziltepa tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozlari

ming so‘mda

Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
Qiziltepa tuman	**151 408 026**	**151 408 026**